



O'QUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA O'QISH FANINING AHAMIYATI

Toshkent viloyati Parkent tumani

31-maktabning oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Rahimxo'jayeva Gulnora

Anotatsiya: Ushbu maqolada o'qish fanining o'quvchilarning ma'naviy kamolotini shakllantirishda, fikrini tartibli, nutqini esa tushunarli va mantiqiy ketma-ketlikda ifoda eta olish qobiliyatini shakllantirishdagi ahamiyati, shuningdek, bolalarning teran fikrlaydigan, komil shaxs bo'lib voyaga yetishida o'qish darslarining ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Bog'lanishli nutq, passiv lug'at, tanqidiy fikrlash, empatiya va his-tuyg'ularni tarbiyalash, Davlat ta'lim standarti (DTS), Boshlang'ich sinf „O'qish kitobi“, savodli va ifodali gapirish, hikoya qilish ko'nikmasi.

Kirish.

O'qish (o'qish savodxonligi va ifodali o'qish) fani o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda, so'z boyligini oshirishda hamda fikrni ravon, mantiqiy ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishda hal qiluvchi poydevor hisoblanadi.

Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'qish fani nafaqat matnlarni to'g'ri o'qish va ularni tushunish bilan cheklanmay, balki bolalarning bog'lanishli nutqini shakllantirish va rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “Mustaqil o'ylay oladigan, tafakkur yuritib, to'g'ri ma'qul va maqbul ish tuta oladigan vatanparvar shaxslarni shakllantirish va tarbiyalash kerak”, - deb ta'kidlaydi o'z nutqlarida.



Bunda shaxsning ma'naviy kamoloti, mustaqil fikrlashi hamda barcha fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishi uchun ham o'qish fani poydevor hisoblanadi. Bu fan nafaqat matnni shunchaki tushunishga, balki hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xo'sh, o'qish fani bizga nima uchun kerak?

- **Nutq madaniyatini rivojlantirish uchun:** So'z boyligini oshiradi, fikrni ravon, aniq va ta'sirchan ifodalashga yordam beradi.

- **Tahlil qilish qobiliyati uchun:** Matn mazmunini tushunish, undagi asosiy g'oyani ajratish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni kuchaytiradi.

- **Dunyoqarashni kengaytirish uchun:** Turli mavzudagi asarlar orqali insoniyat tajribasi, madaniyati va qadriyatlari bilan tanishtiradi.

- **Empatiya va his-tuyg'ularni tarbiyalash uchun:** Qahramonlar taqdirini his qilish orqali boshqalarni tushunish va insoniy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

- **Ta'limdagi muvaffaqiyat uchun:** Barcha fanlarni o'zlashtirish va turli murakkab masalalarni tushunish uchun eng zarur bo'lgan universal ko'nikma hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standarti (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalarida hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi. Shu



maqsadda „O‘qish kitobi“ darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o‘rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma‘naviy qadriyatlar, xalqlar do‘stligi va tinclilik kabi turli mavzular bo‘yicha atroflicha tushunchalar berishga mo‘ljallangan badiiy, axloqiyta‘limiy, ilmiy ommabop asarlar kiritiladi.

O‘qish darslari savod o‘rgatish davrida o‘quvchilarni bo‘g‘in, so‘z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o‘qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o‘qish texnikasi egallangandan so‘ng o‘qish muayyan mavzular bo‘yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi. Boshlang‘ich sinf „O‘qish kitobi“ darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o‘quvchilarni badiiy adabiyotning sehrlı olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida to‘g‘ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi.

Shunga ko‘ra, o‘qish darslarining yetakchi xususiyati o‘quvchilarning savodxonligini ta‘minlash bilan birga, o‘quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi. Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo‘lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og‘zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma‘naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan. O‘qish darslari uchun tanlangan mavzular o‘quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo‘yicha ham bilim va tarbiya berishni ko‘zda tutadi. Bular ichida istiqlol, vatan, ma‘naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko‘zlangan maqsad o‘zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bog‘liq tuyg‘ularni uyg‘otishdir.

Asosiy qism.

O‘qish fani (xususan, boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi va adabiyot) shaxsning ma‘naviy olamini shakllantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va savodxonlikni oshirishda poydevor hisoblanadi.



O‘qish darslarining **nutqni o‘stirishdagi asosiy ahamiyati** quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

• **So‘z boyligini oshirish:** Badiiy asarlarni o‘qish jarayonida o‘quvchilar yangi so‘zlar, iboralar va sinonimlar bilan tanishadilar, bu esa ularning nutqini boyitadi. Matnlardagi yangi, murakkab va adabiy so‘zlar bilan tanishish o‘quvchining passiv lug‘atini faol nutqqa aylantiradi.

• **Savodli va ifodali gapirish:** Matn ustida ishlash (qismlarga bo‘lish, qayta hikoyalash) bolalarda grammatik jihatdan to‘g‘ri va ketma-ketlikka amal qilgan holda gap tuzishni o‘rgatadi. Matnni baland ovozda to‘g‘ri talaffuz qilib o‘qish, urg‘u va tinish belgilariga rioya qilish nutqning ravonligini ta‘minlaydi.

• **Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish:** O‘qilgan asar mazmunini tahlil qilish, qahramonlar harakatiga baho berish va o‘z fikrini dalillash orqali tanqidiy fikrlash qobiliyati o‘sadi. O‘qilgan asar mazmuni bo‘yicha savollarga javob berish, voqelikka munosabat bildirish o‘quvchining mustaqil fikrlash va fikrini isbotlab berish qobiliyatini rivojlantiradi.

• **Hikoya qilish ko‘nikmasi:** O‘quvchi matnni mustaqil ravishda qayta hikoyalash, qismlarga bo‘lish yoki voqealar rivojini davom ettirish orqali o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda tartibli bayon etishni o‘rganadi.

• **Ifodali nutqni shakllantirish:** Matnni qahramonlar his-tuyg‘usini his qilgan holda ifodali o‘qish — nutq ohangini, urg‘u va pauzalarni to‘g‘ri qo‘llashga yordam beradi.

• **Mustaqil ijodiy ishlar:** Matn asosida kichik hikoyalar yoki insholar yozish yozma nutqni o‘stirishga xizmat qiladi

Bog‘lanishli nutq – o‘quvchilarning fikrlarini tartibli, tushunarli va mantiqiy ketma-ketlikda ifoda eta olish qobiliyatidir. Bu ko‘nikma o‘quvchilarning nafaqat



dars jarayonida, balki kundalik hayotda ham o‘z fikrlarini aniq va ravon bayon qilishiga yordam beradi. O‘qish darslarida nutq rivojlantirishga qaratilgan turli metod va usullardan foydalanish, o‘quvchilarning tafakkurini kengaytirib, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Boshlang‘ich sinflarda bog‘lanishli nutqni rivojlantirish uchun o‘qituvchilar o‘quvchilarga matnni qayta hikoya qilish, savol-javob usuli orqali tahlil qilish, rolli o‘yinlar, juftlik va guruhda ishlash kabi samarali metodlarni qo‘llaydilar.

Ushbu yondashuvlar nafaqat o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, balki ularning eslab qolish qobiliyatini ham mustahkamlashga xizmat qiladi. Matn asosida mustaqil fikr yuritish, qahramonlar harakatlarini baholash va shaxsiy munosabat bildirish orqali o‘quvchilar tahliliy va tanqidiy fikrlashni o‘rganadilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bog‘lanishli nutqini o‘qish darslari orqali rivojlantirishning ahamiyati va bu jarayonda qo‘llaniladigan samarali usullarning, shuningdek, turli metodlarning o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytirish, nutq madaniyatini shakllantirish va muloqotga bo‘lgan ishonchini oshirishdagi o‘rni beqiyos. Demak, ushbu fanning bola uchun qanchalik ahamiyatli ekanligini sanab o‘tamiz:

• **Savodxonlikni shakllantirish:** Harflarni tanish, so‘zlarni to‘g‘ri o‘qish va matn mazmunini tushunish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

• **Nutq madaniyatini rivojlantirish:** So‘z boyligini oshiradi, fikrni ravon, ifodali va to‘g‘ri yetkazishga yordam beradi.

• **Ijodiy va tanqidiy fikrlashni yuksaltirish:** Matn qahramonlari harakatlarini tahlil qilish orqali dunyoqarash kengayadi, muammolarga ijodiy yondashish ko‘nikmasi shakllanadi.

• **Ma‘naviy-axloqiy tarbiya:** Badiiy asarlardagi ezgulik, sadoqat, do‘stlik kabi ijobiy fazilatlar orqali yoshlarda yuksak insoniy qadriyatlar tarbiyalanadi.



• **Kelajakdagi muvaffaqiyat:** Yaxshi o‘qish va matnni tushunish qobiliyati barcha boshqa fanlarni o‘zlashtirishning asosiy garovidir.

XULOSA

O‘quvchilar nutqini rivojlantirishda o‘qish fanining o‘rni beqiyos bo‘lib, u so‘z boyligini oshiradi, matnni tushunish, fikrni og‘zaki va yozma ravishda to‘g‘ri, ravon hamda mantiqiy bayon etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. O‘quvchilar matn mazmunini tushunish jarayonida o‘z fikrlarini mantiqiy va izchil ifodalashni o‘rganadilar, bu esa ularning kelajakdagi muloqot qobiliyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Hurmatli ota-onalar! Bolaning so‘z boyligi, nutqi hamda dunyoqarashi ortishi uchun sizlardan ham quyidagilar talab etiladi:

O‘quvchi bilan uyda birgalikda ovoz chiqargan holda ertak-hikoyalarni o‘qish, bolajondan ertak mazmunini so‘zlab berishini so‘rash, ertak qahramonlarining holatlarini tasvirlashini so‘rash, tasavvurni boyitish uchun “O‘qish kitobi”da dars jarayonida tanishgan mavzu yuzasidan ko‘proq suhbatlashish-bu farzandingiz kelajagi uchun juda ham foydali. Bu davomli bo‘lsa esa, farzandingizda kitob o‘qishga qiziqishni ortishiga, dunyoqarashning kengayishiga, mantiqiy fikrlashning naqadar ortishiga, eng muhimi, kitob bilan yaqin munosabat o‘rnata oladigan odatni shakllanishiga sababchi bo‘ladi.

Zero, yoshlikdan olingan bilim-toshga o‘yilgan naqsh kabidir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev.Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
2. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun QRQ-637-son 23.09.2020.



3. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dastiri. Toshkent-2010.
- 4.
4. Abdullayeva Q. va boshqalar 2-sinfda O'qish darslari – T: 2004.
5. Safarova R., Darslik T :Ma'naviyat 2016. G'offorova T., va boshqalar.
6. O'. Boshlang'ich sinf O'quvchilarini nutqini O'stirish. T. 2016.
7. O'qish kitobi : Umumiy O'rta ta'lim maktablarining 1 - sinf uchun darslik - Sharq nashriyot - matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati Toshkent.
8. Shoxsanamxon, N. (2025, January). FARG 'ONA DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTINING TASHKIL TOPISH TARIXI. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MEDICINE, SCIENCE, AND EDUCATION (Vol. 2, No. 1, pp. 21-25).
9. Mirzaliyevna, S. Z., & Muxlisaxon, V. (2024). BOSHLANG 'ICH SINLARDA NUTQIY XATOLARNI BARTARAF ETISHNING USULLARI. University Research Base, 441-444.